

**Radjabova Malika Ziyodullayevna**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi*

## **MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH AHAMIYATI**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotda investitsiyalarning zaruriyati, xususan, biznes rivojlantirishda mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari, aksiyadorlik jamiyatlarida samarali moliyalashtirish strategiyasini yaratish, hududlar miqyosida investitsion salohiyat darajasi rivojlantirish masalalari bayon etilgan. Shuningdek, xorijiy investorlar ishtirokidagi biznes subyektlarining faoliyati va daromadlilik ko'rsatkichlari, ulardagi investitsion loyihalarning samaradorligi tahlil etilgan. Kompaniyalarga investitsiyalarni jalb etishda kapital bozorining imkoniyati va undagi moliyaviy instrumentlar afzalliklari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** *investitsiya, tadbirkorlik, xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalar, aksiya, obligatsiya, investor, moliyalashtirish, asosiy kapital, biznes, samaradorlik ko'rsatkichlari, rentabellik, kapital bozori, xususiy kapital, soliq imtiyozlari, NPV, IRR, CAPM.*

## **ВАЖНОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ**

**Аннотация.** В данной статье описывается необходимость инвестиций в национальную экономику, в частности возможности привлечения местных и иностранных инвестиций в развитие бизнеса, создания эффективной стратегии финансирования в акционерных обществах, развития уровня инвестиционного потенциала на региональном уровне. Также были проанализированы показатели деятельности и рентабельности хозяйствующих субъектов с участием иностранных инвесторов, эффективность их инвестиционных проектов. Рассмотрены возможности рынка капитала и преимущества финансовых инструментов в привлечении инвестиций в компании.

**Ключевые слова:** *инвестиции, предпринимательство, иностранные инвестиции, портфельные инвестиции, акция, облигация, инвестор, финансирование, основной капитал, бизнес, показатели эффективности, рентабельность, рынок капитала, частный капитал, налоговые льготы, NPV, IRR, CAPM.*

### ***THE IMPORTANCE OF ATTRACTING INVESTMENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY***

**Abstract:** This article describes the need for investments in the national economy, in particular, the possibilities of attracting local and foreign investments in business development, creating an effective financing strategy in joint-stock companies, and developing the level of investment potential at the regional level. Also, the performance and profitability indicators of business entities with the participation of foreign investors, the effectiveness of their investment projects were analyzed. The possibilities of the capital market and the advantages of financial instruments in attracting investments to companies were considered.

**Key words:** *investment, entrepreneurship, foreign investment, portfolio investment, share, bond, investor, financing, fixed capital, business, efficiency indicators, profitability, capital market, private capital, tax incentives, NPV, IRR, CAPM.*

#### **KIRISH**

Global iqtisodiyotda investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning ajralmas elementi bo‘lib, asosan moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy sohadagi ustuvor loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltiriladi. Yangi texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, davlat iqtisodiy salohiyatini kengaytirish, jahon bozorida raqobatbardoshligini mustahkamlash va boshqaruvning ilg‘or yondashuvlarini joriy etishda tog‘ridan tog‘ri moliyaviy investitsiyalar ahamiyat juda katta hisoblanadi. Xususan, Jahon Bankining statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda dunyo yalpi ichki mahsulotining qiymati 100,88 trln. AQSH dollariga teng bo‘lib, oldingi yilga nisbatan 3,1 foziga oshgan bo‘lsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning qiymati 1,76 trln. AQSH dollarini tashkil etgan [1]. Albatta,

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kapital qo'yilmalari, ilg'or texnika va texnologiyalar hamda boshqa moliyaviy aktivlarning kirib kelishi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga katta hissa qo'shib, jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuviga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini barqaror saqlab qolish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan tadbirlar bilan birgalikda, keyingi 20-30 yillik strategik investitsiya siyosati ham shakllantirilmoqda, bu esa mamlakatning istiqbollari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilanganidek, "Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini jadal rivojlantirish. Mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish. Umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod strategik ahamiyatiga ega bo'lgan texnologik va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish. Agrar sohaga jami 15 milliard dollar investitsiyalarni jalb qilish. Xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, mehmon o'rinlari sonini kamida 2 barobarga oshirish, tog'li hududlarda 25 ta dor yo'llari qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish. Asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha 7 foiz atrofida o'sishini ta'minlash"[2] milliy iqtisodiyotda investitsion faoliyatni samaradorligini oshirish va yirik loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish, investitsiya muhitini rivojlantirishda biznes subyektlari, davlat, tadbirkorlar va investitsiya loyihalari tashabbuskorlarining o'zaro faoliyatni muvofiqlashtirish orqali ish olib borishlari iqtisodiyotining har qanday sohasiga ta'sir ko'rsatishni o'rganish juda muhimdir.

Investitsiya muhitini rivojlantirishning yuqori va barqaror sur'atlarni saqlash, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, investitsiyalarni infratuzilma va davlat-xususiy sheriklik loyihalar orqali yo'naltirish, faoliyatni raqamlashtirish hamda investitsiyalarga oid davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish, mamlakatning eng istiqbolli sohasiga investitsiya siyosatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bu

jarayonlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini mustahkam qilishda, biznes va investitsiyalar uchun o‘zaro uyg‘unlikni ta‘minlashda va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishda katta ahamiyatga ega.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

Xalqaro amaliyotdan ma‘lumki, investitsiya iqtisodiyotning rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Mamlakatimiz rahbari SH.M. Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”[3],- degan edi.

Biznesda investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish, moliyalashtirish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib borgan bir qator xorijlik iqtisodchi-olimlarni keltirish mumkin. Xususan, iqtisodchi olimlardan Napaporn Likitwongkajon, Chaiporn Vithessonthilar “Kapital qo‘yilmalar firmaning raqobatbardoshligi va rentabelligini saqlab turishi yoki yaxshilashi kutilsa-da, ular firmaning riskini ham oshirishi mumkin. Shuning uchun investitsiya stavkasi firma riskining yuqori darajasiga olib kelishi mumkin”[4] deya ta‘kidlashadi. Ushbu o‘rinda investitsiya va risk darajasi doimiy ravishda bir biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

T.V.Teplovaning fikricha, “Investitsion faoliyat (investitsiya) – jami muddatlari, risklari va investitsiya ob'ektlari bo‘yicha investitsiya qarorlari hamda ularni amalga oshirish bo‘yicha amaliy harakatlar”[5] deya ta‘kidlab, investitsion faoliyatning muhimligini va uni samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy jihatdan asoslangan takliflar shakllanitirilgan.

L.I. Yuzvovich ilmiy tadqiqotlarida “Har qanday davlat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyaning o‘rni: birinchidan, jahon xo‘jalik aloqalarining baynalmilallashuvi va globallashuvida; ikkinchidan, milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirish va tiklashda; uchinchidan, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakllarini tashkil etishda, strategik sheriklik munosabatlarini yaratishda, kompaniyalararo birlashishga erishishda; to‘rtinchidan, iqtisodiyot va biznesning

yangi sohalariga investitsiyalarni diversifikatsiya qilishda”[6] namoyon bo‘ladi.

Normamatov I.B. fikricha, “investitsiya deganda ko‘p qirrali faoliyatni tushunish lozim va u bo‘sh bo‘lgan moliyaviy mablag‘larni kelajakda moddiy va moliyaviy boylikni yaratuvchi tadbirkorlik subyektlariga sarflashni ifodalaydi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, tijorat banklarining va davlatning hududiy investitsiya bilan bog‘liq ko‘p qirrali faoliyati, tadbirkorlarning o‘z mablag‘lari, aholi mablag‘larining moddiy va moliyaviy boyliklarni yaratadigan obyektlarga sarflanadigan moliyaviy resurslarni shakllantirish lozim”[7]. Fikrimizcha, investitsion faoliyat bank faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, uni samarali tashkil etish investorlar oqimini ko‘payishiga olib keladi.

Yurtimiz iqtisodchilaridan A..A.Abdukarimov, Sh.N.Mirzaeva “Har qanday davlat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyatga ega, chunki u xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro munosabatlarning rivojlanishi, milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi bilan belgilanadi. Xorijiy investitsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish, boshqaruvning yangi shakllarini joriy etish, texnologik jarayonlarni yangilash va modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, mamlakatimiz eksport salohiyatini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi bandligini oshirish, mahsulot va davlat raqobatbardoshligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda”[8]. Shu o‘rinda, ta’kidlash joizki, xorijiy investitsiyalar rivojlanayotgan davlatlarda valyuta oqimini optimallashtirishda, yangi texnika va texnologiyalarni qabul qilishda, investitsion loyihalarni xalqaro standartlar asosida samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning fikr va mulohazalaridan kelib chiqqan holda investitsiyalar biznes faoliyatni doimiy rivojlantirishda va uning daromadlilikini ta’minlashda eng asosiy omil yoki instrument sifatida talqin etsak bo‘ladi.

### **TADQIQOT METADALOGIYASI**

Mazkur maqolada biznes faoliyatida investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha xalqaro amaliyotni tahlil qilish davomida turli mamlakatlar va kompaniyalarning ko‘rsatkichlarini taqqoslangan, qiyoslash metodi orqali tavsiyalar qo‘llanilgan.

Turli tahlillarni amalga oshirish orqali analiz, sintez va ilmiy abstraksiyalash amalga oshirilgan.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va uning barqarorligini ta'minlashda investitsiyalarni jalb qilish muhim o'rin tutadi. Xususan, iqtisodchilar ta'kidlaganidek, "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda investitsiya jarayonlarini faollashtirish vazifasi tegishli tartibga soluvchi vositalarni shakllantirishdan iborat bo'lib, bu vositalarsiz tadbirkorlikni rivojlantirish sari tabiiy harakatni amalga oshirib bo'lmaydi. Investitsiya siyosati milliy iqtisodiyot, tarmoqlar hamda hududlarda tadbirkorlik rivojlanish bilan uyg'un bo'lsagina o'zining kutilgan samarasini beradi. Investorlarning hududlar ravnaqiga pul tikishi uchun ularga qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoit yaratish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masaladir. Shu o'rinda investitsion jarayonlarni tahlil qilish va amalga oshirishda kelajakda iqtisodiy rivojlanishga asos bo'luvchi investitsiya yo'nalishlariga urg'u berish kerak[9]". Biznes uchun investitsiyalarni jalb qilish muhim bo'lgan bir necha asosiy sabablar sifatida quyidagilarni e'tirof etsak bo'ladi:

1. Kompaniya rivojlanishi: Investitsiyalar kompaniyaga rivojlanish, kengayish va o'sish imkonini beradi. Investitsiyalar orqali kompaniya yangi texnologiyalar, uskunalar, jarayonlarga sarmoya kiritishi, shuningdek, yangi bozorlarni ochishi va yangi mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqishi mumkin.

2. Moliyaviy barqarorlik: Investitsiyalar kompaniyani qo'shimcha moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi, bu esa uning moliyaviy holatini yaxshilashga, biznes faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishga va vaqtinchalik qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

3. Iste'dodlarni jalb qilish: Investitsiyalar yuqori malakali mutaxassislar va iqtidorli xodimlarni jalb qilishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida kompaniyaning unumdorligi va raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.


4. Kompaniya qiymatini oshirish: Investitsiyalar kompaniya qiymatini oshiradi, bu uning egalari va aksiyadorlari uchun qo'shimcha qiymat yaratadi.

5. Xavflarni diversifikatsiya qilish: Investitsiyalarni jalb qilish moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va bir manbaga qaramlikni kamaytirish orqali kompaniya uchun risklarni kamaytirish imkonini beradi.

6. Innovatsiyani amalga oshirish: Investitsiyalar kompaniyaning o‘sishi va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradigan innovatsion mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilishi mumkin.


Umuman olganda, investitsiyalarni jalb qilish biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishi va bozordagi mavqeiini mustahkamlashning muhim vositasidir. Investitsiyalardan to‘g‘ri foydalanish foydani oshirishga, bozor ulushini oshirishga, yangi mijozlarni jalb qilishga va kompaniyaning raqobatdosh ustunliklarini mustahkamlashga yordam beradi.

Global iqtisodiyot yalpi ichki mahsulot hajmi va tog‘ridan tog‘ri investitsiyalarning so‘nggi 10 yillik statistikasini kuzatar ekanmiz, 2015-2016-yillarda YaIM qiymatini pasayganligini lekin investitsiyalar hajmi esa o‘shganligini kuzatishimiz mumkin.



**1-rasm. Global yalpi ichki mahsulot va investitsiyalar hajmi, trln. AQSH dollari[10]**

Iqtisodiy adabiyotlarda keltirilganidek, investitsiyalar obyekti bo'yicha: real, moliyaviy, nomoliyaviy, intellektual va muddat bo'yicha: qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli bo'linishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha quyidagicha aks ettirilgan (2-rasm).



**2-rasm. Investitsiyalarning mo'ljallangan obyektiga ko'ra turlari[11]**

2-rasm ma'lumotlarida investitsiyalarning mo'ljallangan obyektiga ko'ra turlari keltirib o'tilgan bo'lib, hozirgi kunda moliyaviy investitsiyalar qiymati yuqori hisoblanib, risklik va daromalilik darajasi ham shunga yarasha balanddir.

Biznesda investitsiyalarni samarali tashkil etishda NPV, IRR va boshqa ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. NPV (sof hozirgi qiymat) va IRR (ichki



daromad darajasi) loyihaning rentabelligini baholash va uni moliyalashtirish bo'yicha qaror qabul qilish imkonini beruvchi asosiy investitsiya ko'rsatkichlari hisoblanadi.

NPV - loyihaning kelajakdagi barcha pul oqimlarining joriy qiymati va dastlabki investitsiyalar o'rtasidagi farqdir. Ijobiy NPV qiymati loyihaning foydali ekanligini ko'rsatadi, salbiy NPV esa loyihaning foydasizligini ko'rsatadi. IRR - bu loyihaning NPV nolga aylanadigan foiz stavkasi. Ushbu ko'rsatkich loyihaning kutilayotgan rentabelligini ko'rsatadi va qaror qabul qilish uchun boshqa mumkin bo'lgan investitsiyalar bilan taqqoslanadi. Ikkala ko'rsatkich ham investitsiya tahlili uchun muhim vosita bo'lib, biznesda investorlarga kapitalni taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilishga yordam beradi.

Biznesga investitsiyalarni jalb qilishning bir necha yo'llari mavjud. Eng keng tarqalgan usullardan ba'zilari quyidagilardan iboratdir:

1. Xususiy investitsiyalar: Bular xususiy shaxslar, jumladan, yaqin do'stlar va oila a'zolari, biznes vakillari, venchur kapitalistlar va boshqa xususiy investorlarning investitsiyalari.

2. Kreditlar va qarzlar: Korxonalar banklar, moliya institutlari yoki xususiy kreditorlardan ssudalar va qarzlar orqali investitsiyalarni jalb qilishlari mumkin.

3. Korporatsiyalardan investitsiyalar: Yirik korporatsiyalar ba'zan korporativ rivojlanish strategiyasi yoki yangi innovatsiyalarni izlash doirasida startaplar yoki yangi kompaniyalarga sarmoya kiritadilar.

4. Crowdfunding: Bu onlayn platformalar orqali keng jamoatchilikdan mablag' yig'ish usulidir. Bu xayriya shaklida yoki mablag'lardan daromad olish uchun investitsiyalar shaklida bo'lishi mumkin.

5. IPO (Initial Public Offering): Bu kompaniya aksiyalarini fond birjasida birlamchi joylashtirish jarayoni bo'lib, kompaniyaga o'z aksiyalarini keng ommaga sotish orqali kapitalni jalb qilish imkonini beradi.

6. Hukumat va grant dasturlari: Kompaniyalar biznesni rivojlantirish uchun moliyaviy yordam ko'rsatadigan davlat yoki grant dasturlari orqali investitsiyalarni jalb qilishlari mumkin.

Yuqoridagi usullarning har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega va ma'lum bir usulni tanlash muayyan biznesning maqsadlari va ehtiyojlariga bog'liq hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham investitsion faoliyat doirasida diqqatga sazavor vazifalar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining bergan ma’lumotlarida, “2023 yilda jami 22,4 mlrd dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilindi, shu jumladan 19,5 mlrd dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiya va kreditlar (193 %) o‘zlashtirildi. Davlat investisiya dasturi doirasida umumiy qiymati 9,4 mlrd dollar bo‘lgan 306 ta loyiha ishga tushishi hisobiga 56 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratilishiga erishilgan”[12]ligini alohida e’tirof etish mumkin. O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar o‘shish sur’ati quyidagi keltirib o‘tilgan(1-jadval).

**1-Jadval**

**O‘zbekistonda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar o‘shish sur’ati, % da[14]**

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar			
o‘shish sur’ati, % da			
Hududlar	2020	2021	2022
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>95,6</b>	<b>102,9</b>	<b>100,2</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	69,9	105,1	114,9
Andijon	110,6	106,0	116,5
Buxoro	104,7	147,4	94,2
Jizzax	147,4	72,4	104,6
Qashqadaryo	76,5	77,8	80,0
Navoiy	77,1	86,0	109,4
Namangan	88,0	100,5	104,2
Samarqand	128,8	98,7	111,6
Surxondaryo	77,4	109,7	87,5
Sirdaryo	111,2	107,7	135,1
Toshkent	92,2	120,3	110,7
Farg'ona	113,5	105,7	112,4
Xorazm	92,7	139,3	94,2
Toshkent sh.	108,6	105,0	87,2

1-jadval malumotlarida 2020-2022-yillarda O‘zbekistonning har bir hududidagi asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar o‘shish suratini tahlil

keltirilgan bo‘lib, yuqori ko‘rsatkichlarni Sirdaryo, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon hududlarida kuzatishimiz mumkindir.

**2-Jadval**

**O‘zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar[13]**

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar			
ming. so‘m			
Hududlar	2020	2021	2022
<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>6140,3</b>	<b>6861,0</b>	<b>7468,6</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3710,0	4189,2	5225,5
Andijon	3047,2	3470,1	4361,1
Buxoro	6295,0	10462,9	10855,5
Jizzax	8984,7	6470,7	7107,9
Qashqadaryo	6214,7	5148,2	4647,7
Navoiy	15604,2	14672,4	17189,8
Namangan	4229,2	4477,8	4984,4
Samarqand	3746,0	3920,7	4642,5
Surxondaryo	3792,2	4438,7	4169,4
Sirdaryo	8425,4	9257,1	13919,1
Toshkent	7169,0	9644,5	12056,8
Farg'ona	2916,0	3272,3	3917,2
2	2868,2	4344,3	4517,9
Toshkent sh.	19065,6	20619,8	19539,4

2-jadval ma'lumotlarida 2020-2022-yillarda O‘zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tahlil keltirilgan. O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholi jon boshiga asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar qiymati 7,5 mln. So‘mni yoki oldingi yilga nisbatan 108,8 foizga oshganligini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish maqsadida investitsiya faoliyatini rivojlantirishning bir qancha ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Ba'zi asosiy yo‘nalishlarga quyidagilar kiradi:

1. Energiya va tabiiy resurslar: Energetika sektorini, shu jumladan qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirish hamda gaz, neft va uran kabi tabiiy resurslarni qazib olish investorlar uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

2. Transport infratuzilmasi: O'zbekistonda transport infratuzilmasi, jumladan, temir yo'llar, avtomobil yo'llari, aeroportlar va portlarni qurish va modernizatsiya qilish faol rivojlanmoqda, bu esa ushbu sohaga sarmoya kiritish uchun imkoniyatlar yaratmoqda.

3. Agrobiznes: O'zbekiston qishloq xo'jaligi, jumladan, paxta, meva, sabzavot va g'alla yetishtirishda katta imkoniyatlarga ega. Agrobiznesga investitsiyalar zamonaviy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash va hosildorlikni oshirish imkonini beradi.

4. Sanoat: O'zbekiston iqtisodiyoti uchun sanoatni, jumladan, to'qimachilik ishlab chiqarish, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega.

5. Turizm: O'zbekiston boy madaniy meros va tarixiy obidalarga ega bo'lib, ular tobora ko'proq xorijlik sayyohlarni o'ziga jalb etmoqda. Infratuzilmani, mehmonxona biznesini va turizm xizmatlarini rivojlantirish sarmoya kiritishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Bu va boshqa sohalar O'zbekistonning potentsial investitsiya imkoniyatlarini ifodalaydi hamda mamlakat iqtisodiy o'sishini rag'batlantiradi.

## **XULOSA**

Xususiyy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish, doimiy muloqot va muhokama olib borish muhimdir. Bu, investitsiyalar va biznes faoliyati sohasidagi muammolarni hal qilish, shu orqali rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalarni jalb qilish bir qator ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

**Biznesni rivojlantirish:** Yangi investitsiyalar korxonaning o'sishi va rivojlanishiga hissa qo'shishi, ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot yoki xizmatlarni yaxshilash va yangi loyihalarni ishga tushirish imkonini beradi.

**Ish o'rinlarini yaratish:** Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga va qo'shimcha ish o'rinlari yaratishga yordam beradi, bu esa iqtisodiyot va bandlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Texnologik taraqqiyot: investitsiyalar yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni o‘zlashtirishni rag‘batlantirishi mumkin, bu esa biznes samaradorligini va bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi.

Kapital oqimi: sarmoyalarni jalb qilish mamlakat yoki mintaqaga kapital oqimini osonlashtirishi mumkin, bu esa iqtisodiy o‘shishga va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

Yashash sharoitlarini yaxshilash: tadbirkorlik faoliyatiga investitsiyalar yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishga, iste‘molchilar va butun jamiyatning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Umuman olganda, investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish va biznesni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. <https://data.worldbank.org/indicator/BX.KLT.DINV.CD.WD>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
3. [https://www.norma.uz/oz/muhim\\_voqealar/uzbekiston\\_respublikasi\\_prezidenti\\_shavkat\\_mirzиеevning\\_oliy\\_majlisga\\_murojaatnomasi](https://www.norma.uz/oz/muhim_voqealar/uzbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzиеevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi)
4. Napaporn Likitwongkajon, Chaiporn Vithessonthi, Foreign investments and firm risk: Evidence from Germany, *Global Finance Journal*, Volume 59, 2024, 100931, ISSN 1044-0283, <https://doi.org/10.1016/j.gfj.2024.100931>.
5. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1044028324000036>)
6. Инвестиции : учебник для бакалавров / Т. В. Теплова. — 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2016. — 782 с. — Серия : Бакалавр. Углубленный курс.
7. Инвестиции : учебник / [Л.И. Юзвович и др.] ; под ред. Л.И. Юзвович ; М-во науки и высш. образования Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — 2-е изд., испр. и доп. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2018. — 610 с. — (Учебник УрФУ).
8. Normamatov I.B. Sanoat korxonalarini iqtisodiy-investitsion rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari //Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 3. – С. 42-49.

9. Абдукаримов Б. А. А., Мирзаева Ш. Н. РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 36. – С. 648-656.

10. Normamatov I.B. Sanoat korxonalarini iqtisodiy-investitsion rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari //Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 42-49.

11. <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.CD>

12. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida” Qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son

13. <https://gov.uz/miit/sections/hisobotlar/view/7405/>

14. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>